O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil 30 - noyabr 571-4-0-Q/23 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limining Nishon tumani hududlaridagi kanallar joylashgan yer maydonlarni yo‘qlamadan o‘tkazish va sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlarni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi 981-sonli qarori hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 6-martdagi 8-4-0-F/22-sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limining Nishon tumani hududida kanallar egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlarni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish ishlarini ko‘rib chiqish komissiyasining 2023-yil 23-oktabrdagi dalolatnomasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limining Nishon tumani hududida joylashgan “R-4”, “R-4-1”, “R-9” va “R-10” kanallarining yer maydonlarini yo‘qlamadan o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman

Irrigatsiya bo‘limining Nishon tumani hududida joylashgan “R-4”, “R-4-1”, “R-9” va “R-10” kanallarining egallagan yerlari va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlar 1-,2-,3-ilovalarga muvofiq Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

3. “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi 981-sonli qarordagi Nizom talablariga asosan quyidagi taqiqlanishlar belgilansin:

a) Suvni muhofaza qilish maydonlarida:

- o‘simliklar zararkunandalari va kasalliklariga, begona o‘tlarga qarshi ishlatiladigan zaharli kimyoviy vositalarning har qanday turini qo‘llash va ko‘mish;

- go‘ng solingan oqova suvlarni zararsizlantirmasdan o‘g‘it sifatida foydalanish, shuningdek, tozalanmagan sanoat va xo‘jalik-maishiy oqova suvlarni tashlash;

- daraxt va butalarni kesish, zaharli kimyoviy vositalar, pestitsidlar, gerbitsidlar va mineral o‘g‘itlar saqlanadigan omborlar, zaharli kimyoviy vositalar apparatlarini to‘ldiradigan maydonchalar, aviatsiya-kimyo ishlarini olib borish uchun uchish-qo‘nish yo‘llari qurish;

- markazlashgan kanalizatsiya tarmoqlari bo‘lmagan yangi uy-joylar va turistik komplekslarni qurish;

b) yuqoridagilarga qo‘shimcha, sohil bo‘yi mintaqasi doirasida yana quyidagilar ham taqiqlansin:

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo‘jaligi organlari, shuningdek, suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

- organikva mineral o‘g‘itlarnisaqlashvaqo‘llash;

- chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

- har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o‘tinxona, hojatxona va boshqalarni qurish (suv xo‘jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

- mineral o‘g‘itlarni transportda tashish va sepishda qo‘llanilgan idishlar,

mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

- jun, kanop va teri yuvish.

4. Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga Nishon tumani hududidagi kanallar joylashgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda sanitariya qoidalariga rioya qilgan holda foydalanish yuklatilsin.

5. Davlat Kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (G‘.Hamroyev)ga “R-4”, “R-4-1”, “R-9” va “R-10” kanallari joylashgan yer maydonlarini yo‘qlamadan o‘tkazish va sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlarni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

6. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim ozgarishi boshqarmasi (B.Yazdanov) va Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati viloyat boshqarmasi (T.Pakirov) tomonidan Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limi kanallarining sohil bo‘yi mintaqasida nazorat kuchaytirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga asosan ushbu qaror mazkur masala bo‘yicha yakuniy hisoblanib, ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari U.Uzakov va viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

01.12.2023

| | | |

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

01.12.2023

| | | |

01.12.2023

| | | |

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

| | | |

| | | |

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga qarashli Nishon tumani hududlaridan o‘tgan, “R-4”, “R-4-1”, “R-9”, “R-10” kanallari joylashgan yer maydonlarini yo‘qlamadan o‘tkazish va sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlarni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish to‘g‘risida

D A L O L A T N O M A

2023 yil «23» Oktabr Nishon tumani

Bizlar quyida dalolatnoma tuzib imzo chekuvchilar:

M.Ergashev	- Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
A.Bekkamov	-Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining yer masalalari bo’yicha o’rinbosari
A.Sayfullayev	- Davlat Kadastrlar Palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Nishon tuman filiali boshlig‘i
A.Normuminov	- Tuman SEO va JS xizmati bo’limi;
B.Ziyodullayev	- Ekologiya va atrof muxitni muhofaza qilish bo’limi boshlig‘i;
Q.Toshboltayev	- “O’zdavyerloyiha” DILI “Qashvilyerloyiha” bo’linmasi loyiha bosh muhandisi;
S.Avazov	- “O’zdavyerloyiha” DILI “Qashvilyerloyiha” bo’linmasi mutahassisi;
T.Soatov	- Nishon tuman irrigatsiya bo’limi boshlig’i;
Z.Aramov	- Nishon tuman qurilish bo’limi boshlig’i;
A.Abdiyev	- Nishon tuman FVBYXB boshlig’i;

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi 981-sonli hamda Qashqadaryo viloyat hokimining 2022-yil 6-martdagi 8-4-0-F/22-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga qarashli Nishon tumani hududlaridan o‘tgan, “R-4”, “R-4-1”, “R-9”, “R-10” kanallari joylashgan yer maydonlarini yo‘qlamadan o‘tkazish va sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasidagi yerlarni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish ishlarini amalga oshirish uchun ishchi guruhi a’zolari tomonidan joyida borib o‘rganib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi 981-sonli qarorini 1-ilovasidagi Nizomini 5-bobiga asosan, suvning holatiga ta'sir ko‘rsatishning oldini olish maqsadida kanallar bo‘ylab suvni muhofaza qilish zonalari belgilanadi, ulardan sohil bo‘yi mintaqalari ajratiladi.

Qarorini 1-ilovasidagi Nizomni 5-bob 33-bandiga asosan Kanallar, sug’orish va kollektor-drenaj tarmoqlari shaharlar, tumanlar markazlari va qishloq aholi punktlari ichidan o’tgan hollarda ularni rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish jarayonida chiqarilgan tuproqlar ushbu hududlardan texnikalar yordamida chiqarib tashlanadi hamda tuproq uyumlarini joylashtirish uchun sohil bo’yi mintaqasiga qo’shimcha yer maydoni ajratilmaydi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman irrigatsiya bo‘limiga qarashli 5 ta kanallari mavjud bo‘lib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlari quyida kektirilgan:

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “R-4” kanali “Samarqand”, “Turkmaniston” va “Xamza” nomli massivlarida joylashgan bo’lib Qarshi bosh kanalidan suv oladi.

“R-4” kanalining umumiy uzunligi 7800 metrni tashkil qilib sig’imi 50 kub metrdan kam bo`lganligi sababli faqat sohil bo‘yi mintaqasi olinib chuqurligi 0,75-2 metr oraliqda bo`lgan joylari uchun sohil bo‘yi mintaqasi 5 metr va 2-5 metr oraliqda bo`lgan joylari uchun sohil bo‘yi mintaqasi 9 metr etib belgilandi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limiga qarashli .“R-4” kanalining joylashgan yer maydoni 11,36 gektarni tashkil etadi.

Sohil bo‘yi mintaqasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer maydoni jami 14,04 gektar shundan 5,98 gektar yo‘llar va 8,06 gektar gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tashkil etadi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining, “R-4-1” kanali “Samarqand” va “Oydin” nomli massivlarida joylashgan bo’lib “R-4” kanalidan suv oladi.

“R-4-1” kanalining umumiy uzunligi 7500 metrni tashkil qilib sig`imi 50 kub metrdan kam bo`lganligi sababli faqat sohil bo‘yi mintaqasi olinib chuqurligi 0,75-2 metr oraliqda bo`lganligi uchun sohil bo‘yi mintaqasi 5 metr va 2-5 metr oraliqda bo`lgan joylari uchun sohil bo‘yi mintaqasi 9 metr etib belgilandi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limiga qarashli “R-4-1” kanalining joylashgan yer maydoni 8,20 gektarni tashkil etadi.

Sohil bo‘yi mintaqasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer maydoni jami 13,72 gektar shundan 4,40 gektar yo‘llar va 9,32 gektar gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tashkil etadi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “R-9” kanali “Do'stlik” va Nishon tumani 2-uchaskasi massivlarida joylashgan bo’lib Qarshi bosh kanalidan suv oladi.

“R-9” kanalining umumiy uzunligi 8100 metrni tashkil qilib sig’imi 50 kub metrdan kam bo`lganligi sababli faqat sohil bo‘yi mintaqasi olinib chuqurligi 0,75-2 metr oraliqda bo`lgan joylari uchun sohil bo‘yi mintaqasi 6.5 metr etib belgilandi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limiga qarashli “R-9” kanalining joylashgan yer maydoni 3,48 gektarni tashkil etadi.

Sohil bo‘yi mintaqasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer maydoni jami 10,32 gektar shundan 2,97 gektar yo‘llar va 7,02 gektar gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tashkil etadi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “R-10” kanali “Ibn Sino” va “U.Yusupov” nomli massivlarida joylashgan bo’lib Qarshi bosh kanalidan suv oladi.

“R-10” kanalining umumiy uzunligi 5800 metrni tashkil qilib sig’imi 50 kub metrdan kam bo`lganligi sababli faqat sohil bo‘yi mintaqasi olinib chuqurligi 0,75-2 metr oraliqda bo`lganligi uchun sohil bo‘yi mintaqasi 6.5 metr etib belgilandi.

Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limiga qarashli “R-10” kanalining joylashgan yer maydoni 4,86 gektarni tashkil etadi.

Sohil bo‘yi mintaqasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer maydoni jami 7,37 gektar shundan 2,61 gektar yo‘llar va 4,76 gektar gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tashkil etadi.

Viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspektsiyasi va davlat sanitariya nazoratidan Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga qarashli kanallarining sohil bo‘yi mintaqasini nazoratini yanada kuchaytirilishi hamda kanallarni ta’mirlash davrida sohil bo’yi mintaqasida avvaldan mavjud bo’lgan ko’p yillik daraxtlarni saqlab qolish so‘ralsin.

Sohil bo‘yi mintaqasi doirasida quyidagilar ta'qiqlanadi:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo‘jaligi organlari, shuningdek, suv xo‘jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat

organlari ruxsatisiz qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

organik va mineral o‘g‘itlarni saqlash va qo‘llash;

chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o‘tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo‘jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

maxsus ajratilgan joylar tashqarisida palatkalar shaharchasini qurish, qayiqlar bog‘lab qo‘yiladigan joylar qilish;

mineral o‘g‘itlardan bo‘shagan idishlarni saqlash va yo‘q qilish;

mineral o‘g‘itlarni transportda tashish va sepishda qo‘llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

jun, kanop va teri yuvish.

Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o‘ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limiga qarashli Nishon tumani hududlaridan o‘tgan, “R-4”, “R-4-1”, “R-9”, “R-10” kanallari sohil bo‘yi mintaqasi ajratilishiga o`z roziliklarini bildiradilar va ko`rib chiqib tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga taqdim etadilar.

Imzolar:

M.Ergashev

A.Bekkamov

A.Sayfullayev

A.Normuminov

B.Ziyodullayev

Q.Toshboltayev

S.Avazov

T.Soatov

Z.Aramov


A.Abdiyev

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
5-ilova


SH
G'
SH
J
Amu–Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmasiga qarashli Nishon tuman Irrigatsiya
bo'limining Nishon tumani "Samarqand", "Turkmaniston"
va "Xamza"nomli hududlaridagi "R-4" kanali joylashgan yer
maydonlarini sohil bo'yi mintaqasidagi suv xo'jaligi inshootlari
egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari mintaqasi uchun
ajratilayotgan yer maydonlari
XARITASI
Xamza massivi
Samarqand massivi
Samarqand massivi
Samarqand massivi
Samarqand massivi
"R-4" kanali suv sathidan mintaqa chizig'igacha bo'lgan masofa; 9metr
"R-4" Kanalini yer maydoni: 11,36 gektar
Kanalini uzunligi: 7800 metr
Sohil bo'yi mintaqasi eni: 9metr
O'ng qirg'oq sohil bo'yi mintaqasi: 9metr yer maydoni: 7,09 gektar
Chap qirg'oq sohil bo'yi mintaqasi: 9metr yer maydoni: 6,95 gektar
Kelishildi
M.Ergashev
A.Saifullayev
A.Bekhamov
A.Jo'rayev
S.Avazov
T.Sonirov
A.Bayrmuradov
-Jamoa hokimining qishloq va suv xo'jaligi
masalalari bo 'yicha o rinbosari;
-Qashqadaryo viloyat
boshqarmasi Nishon tumani filiali boshlig 'i;
-Tuman Qishloq xo'jaligi bo 'limi boshlig 'ining
yer masalalari bo'yicha o 'rinbosari;
-O 'zbekyerloyiha" instituti "Qashvilyerloyiha"
bo 'limasi loyiha bosh muhandisi;
-O 'zbekyerloyiha" instituti "Qashvilyerloyiha"
bo 'limasi mutaxassisi;
-Nishon tuman irrigatsiya bo 'limi boshlig 'i
- Nishon tuman irrigatsiya bo'limiga
qarashli "R-4" kanali boshlig'i;
Masshtab 1 : 10 000
SHARTLI BELGILAR

Amu–Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli Nishon tuman Irrigatsiya bo‘limining Nishon tumani “Samarqand” va“Oydin” hududlaridagi “R-4-1” kanali joylashgan yer maydonlarini sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasi uchun ajratilayotgan yer maydonlari

XARITASI



“R-4-1" Kanalini yer maydoni: 8,20 gektar
Kanalini uzunligi: 7500 metr
Sohil bo’yi mintaqasi eni: 9metr
O’ng qirg’oq sohil bo’yi mintaqasi: 9metr
yer maydoni: 6,80 gektar
Chap qirg’oq sohil bo’yi mintaqasi: 9metr
yer maydoni: 6,92 gektar

Kelishildi

M.Ergashev -Tuman hokimining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari;
A.Sayfullayev -Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Nishon tuman filiali boshlig`i;
A.Bekkamov -Tuman Qishloq xo`jaligi bo`limi boshlig`ining yer masalalari bo`yicha o`rinbosari;
S.Avazov -“O`zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo`limmasi mutaxassisi;
A.Jurayev -“O`zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo`limmasi loyiha bosh muhandisi;
T.Soatov -Nishon tuman irrigatsiya bo`limi boshlig`i
A.Boymurodov – Nishon tuman irrigatsiya bo’limiga qarashli “R-4-1” kanali boshlig’i;
Z. Ataniyov – Nishon tuman qurilish bo`limi boshlig`i

Масштаб 1 : 10 000

SHARTLI BELGILAR

Amu–Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmasiga qarashli Nishon tuman Irrigatsiya
bo‘limining Nishon tumani “Do'stlik” va Nishon tumani
2- uchaskasi hududlaridagi “R-9” kanali joylashganyer
maydonlarini sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari
egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasi uchun
ajratilayotgan yer maydonlari


XARITASI



Amu–Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmasiga qarashli Nishon tuman Irrigatsiya
bo‘limining Nishon tumani “Ibn Sino” va “U.Yusupov”
nomli hududlaridagi “R-10” kanali joylashganyer maydonlarini
sohil bo‘yi mintaqasidagi suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar
va suv obyektlarining qirg‘oqlari mintaqasi uchun
ajratilayotgan yer maydonlari

XARITASI

“R-10” kanali suv sathidan mintaqa chizig’igacha bo’lgan masofa; 6.5 metr



“R-10” Kanalini yer maydoni: 4,86 gektar
Kanalini uzunligi: 5800 metr
Sohil bo’yi mintaqasi eni: 6.5 metr
O’ng qirg’oq sohil bo’yi mintaqasi: 6.5 metr
yer maydoni: 3,91 gektar
Chap qirg’oq sohil bo’yi mintaqasi: 6.5 metr
yer maydoni: 3,46 gektar

Kelishildi

M.Ergashev
A.Sayfullayev
A.Bekkamov
S.Avazov
A.Jurayev
T.Soatov
Sh.Yuldoshev
Z.Ahramov

-Tuman hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari;
-Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Nishon tuman filiali boshlig`i;
-Tuman Qishloq xo`jaligi bo`limi boshlig`ining yer masalalari bo`yicha o`rinbosari;
- “O’zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo’linmasi mutaxassisi;
- “O’zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo’linmasi loyiha bosh muhandisi;
-Nishon tuman irrigatsiya bo’limi boshlig`i
- Nishon tuman irrigatsiya bo’limiga qarashli R-10 kanali boshlig’i;
- Nishon tuman qurilish bölimi boshlig’i

Masshtab 1 : 10 000

SHARTLI BELGILAR

Hudud chegarasi
Aholi yashaydigan joylar va tomorqalar
Jamoa qurilishlari
Devorlar
Yaxshilangan avtomobil yo'llar
Ko'chalar
Dala yo'llar
Ko'priklar
Trubalar
Akveduk
Suv to'g'onlari va dambalar
Kanallar
Zovurlar
Suv bilan qoplangan maydon
Egallab turgan maydon
Mintaqa maydon
Beton ariqlar va lotoklar
Yer usti suv qoruvlari
Yer osti suv qoruvlari
Ariqlar
Yo'l va ariq chetidagi daraxtlar
Yo'l va ariq chetidagi tuproqlar
Sug'oriladigan haydalma yerlar va nomeri
Xolati yomon haydalma yerlar
Bog'lar
Uzumzorlar
Tutzorlar
Tayloqlar
Qabristonlar
Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar
Meliorativ xolati tiklanmaydigan yerlar
Tеrakzorlar va o'rmonzorlar

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
6-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “Ibn Sino” va “U.Yusupov” nomli massivlardagi “R-10” kanalining sohil bo‘yi mintaqasi

PASPORTI

1._____

_____

(suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalari, sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalari hududlarini tasdiqlagan organning nomi, hujjatning tartib raqami va sanasi hamda uning nomi)

ilova qilinayotgan grafik materiallarga muvofiq chegaralarda umumiy maydoni 12,23 ga, jumladan 7,37 ga sohil bo‘yi mintaqasi bo‘lgan suvni muhofaza qilish zonasi belgilangan.

2. Kanalning suv o’tkazish qobiliyati kichikligi sababli muhofaza zonasi belgilanmadi va sohil bo‘yi mintaqasi 9 metr masofada belgilandi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi 981-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasida (sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalarida) quyidagilar taqiqlanadi:

Kanallarning suvni sohil bo‘yi mintaqasida quyidagilar ta’qiqlanadi:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo‘jaligi organlari, shuningdek, suv xo‘jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

organik va mineral o‘g‘itlarni saqlash va qo‘llash;

chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o‘tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo‘jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

mineral o‘g‘itlardan bo‘shagan idishlarni saqlash va yo‘q qilish;

mineral o‘g‘itlarni transportda tashish va sepishda qo‘llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

jun, kanop va teri yuvish.

Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o‘ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

4.Suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi va sohil bo‘yi (sanitariya-himoya) mintaqasida quyidagi birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallanadi:

o‘rmon-meliorativ va agrotexnik chora-tadbirlar — suv obyektlari qirg‘oqlarining mustahkamligini ta'minlash, ularni o‘pirilishdan, botqoqqa aylanishdan saqlashga, shuningdek, suv ob'ektlari suv oqimining tabiiy rejimini barqarorlashtirish va yaxshilash;

irrigatsiya-melioratsiya chora-tadbirlar — suvdan foydalanishda qulay sharoitlar yaratishni ta'minlovchi suv xo‘jaligi inshootlarini qurish, shuningdek, zarur hollarda daryo, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari o‘zanlarini, hovuz, ko‘llar va suv omborlarining tublarini zararli balchiq va cho‘kindilardan tozalashni nazarda tutuvchi;

sanitariya-texnik chora-tadbirlar — suv ob'ektlariga tashlanadigan oqava suvlarni zararsizlantirish va xavfsizlantirishni ta'minlash, shuningdek, sanitariya-muhofaza zonasini va xo‘jalik faoliyati yuritiladigan hududni tuzish;

tashkiliy chora-tadbirlar — suvning holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi korxonalar, binolar va inshootlarni suvni muhofaza qilish zonalaridan ko‘chirish yoki yopish;

atrof-muhitga qulay ta'sir ko‘rsatish uchun ifloslantiruvchi vositalardan foydalanilmay ko‘kalamzorlashtirish va daraxt ekish.

Nishon tumani Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo’limi boshlig’i; B.Ziyodullayev

O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “Samarqand”, “Turkmaniston” va “Xamza” nomli massivlardagi “R-4” kanalining sohil bo‘yi mintaqasi

PASPORTI

1._____

_____

(suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalari, sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalari hududlarini tasdiqlagan organning nomi, hujjatning tartib raqami va sanasi hamda uning nomi)

ilova qilinayotgan grafik materiallarga muvofiq chegaralarda umumiy maydoni 25,40 ga, jumladan 14,04 gektar sohil bo‘yi mintaqasi bo‘lgan suvni muhofaza qilish zonasi belgilangan.

2. Kanalning suv o’tkazish qobiliyati kichikligi sababli muhofaza zonasi belgilanmadi va sohil bo‘yi mintaqasi 9 metr masofada belgilandi.

3 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi 981-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasida (sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalarida) quyidagilar taqiqlanadi:

Kanallarning suvni sohil bo‘yi mintaqasida quyidagilar ta’qiqlanadi:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo‘jaligi organlari, shuningdek, suv xo‘jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

organik va mineral o‘g‘itlarni saqlash va qo‘llash;

chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o‘tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo‘jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

mineral o‘g‘itlardan bo‘shagan idishlarni saqlash va yo‘q qilish;

mineral o‘g‘itlarni transportda tashish va sepishda qo‘llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

jun, kanop va teri yuvish.

Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o‘ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

4.Suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi va sohil bo‘yi (sanitariya-himoya) mintaqasida quyidagi birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallanadi:

o‘rmon-meliorativ va agrotexnik chora-tadbirlar — suv obyektlari qirg‘oqlarining mustahkamligini ta'minlash, ularni o‘pirilishdan, botqoqqa aylanishdan saqlashga, shuningdek, suv ob'ektlari suv oqimining tabiiy rejimini barqarorlashtirish va yaxshilash;

irrigatsiya-melioratsiya chora-tadbirlar — suvdan foydalanishda qulay sharoitlar yaratishni ta'minlovchi suv xo‘jaligi inshootlarini qurish, shuningdek, zarur hollarda daryo, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari o‘zanlarini, hovuz, ko‘llar va suv omborlarining tublarini zararli balchiq va cho‘kindilardan tozalashni nazarda tutuvchi;

sanitariya-texnik chora-tadbirlar — suv ob'ektlariga tashlanadigan oqava suvlarni zararsizlantirish va xavfsizlantirishni ta'minlash, shuningdek, sanitariya-muhofaza zonasini va xo‘jalik faoliyati yuritiladigan hududni tuzish;

tashkiliy chora-tadbirlar — suvning holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi korxonalar, binolar va inshootlarni suvni muhofaza qilish zonalaridan ko‘chirish yoki yopish;

atrof-muhitga qulay ta'sir ko‘rsatish uchun ifloslantiruvchi vositalardan foydalanilmay ko‘kalamzorlashtirish va daraxt ekish.

Nishon tumani Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo’limi boshlig’i; B.Ziyodullayev

O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo‘limining “Samarqand” va “Oydin” nomli massivlardagi “R-4-1” kanalining sohil bo‘yi mintaqasi

PASPORTI

1._____

_____

(suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalari, sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalari hududlarini tasdiqlagan organning nomi, hujjatning tartib raqami va sanasi hamda uning nomi)

ilova qilinayotgan grafik materiallarga muvofiq chegaralarda umumiy maydoni 21.92 ga, jumladan 13.72 ga sohil bo‘yi mintaqasi bo‘lgan suvni muhofaza qilish zonasi belgilangan.

2. Kanalning suv o’tkazish qobiliyati kichikligi sababli muhofaza zonasi belgilanmadi va sohil bo‘yi mintaqasi 9 metr masofada belgilandi.

3 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi 981-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasida (sohil bo‘yi va sanitariya-himoya mintaqalarida) quyidagilar taqiqlanadi:

Kanallarning suvni sohil bo‘yi mintaqasida quyidagilar ta’qiqlanadi:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo‘jaligi organlari, shuningdek, suv xo‘jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

organik va mineral o‘g‘itlarni saqlash va qo‘llash;

chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o‘tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo‘jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

mineral o‘g‘itlardan bo‘shagan idishlarni saqlash va yo‘q qilish;

mineral o‘g‘itlarni transportda tashish va sepishda qo‘llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

jun, kanop va teri yuvish.

Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o‘ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

4.Suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi va sohil bo‘yi (sanitariya-himoya) mintaqasida quyidagi birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallanadi:

o‘rmon-meliorativ va agrotexnik chora-tadbirlar — suv obyektlari qirg‘oqlarining mustahkamligini ta'minlash, ularni o‘pirilishdan, botqoqqa aylanishdan saqlashga, shuningdek, suv ob'ektlari suv oqimining tabiiy rejimini barqarorlashtirish va yaxshilash;

irrigatsiya-melioratsiya chora-tadbirlar — suvdan foydalanishda qulay sharoitlar yaratishni ta'minlovchi suv xo‘jaligi inshootlarini qurish, shuningdek, zarur hollarda daryo, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari o‘zanlarini, hovuz, ko‘llar va suv omborlarining tublarini zararli balchiq va cho‘kindilardan tozalashni nazarda tutuvchi;

sanitariya-texnik chora-tadbirlar — suv ob'ektlariga tashlanadigan oqava suvlarni zararsizlantirish va xavfsizlantirishni ta'minlash, shuningdek, sanitariya-muhofaza zonasini va xo‘jalik faoliyati yuritiladigan hududni tuzish;

tashkiliy chora-tadbirlar — suvning holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi korxonalar, binolar va inshootlarni suvni muhofaza qilish zonalaridan ko‘chirish yoki yopish;

atrof-muhitga qulay ta'sir ko‘rsatish uchun ifloslantiruvchi vositalardan foydalanilmay ko‘kalamzorlashtirish va daraxt ekish.

Nishon tumani Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo’limi boshlig’i; B.Ziyodullayev

O'zbekiston Respublikasi qashqadaryo viloyati Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tumani Irrigatsiya bo'limining "Do'stlik" va Nishon tumani 2- uchaskasi massivlaridagi "R-9" kanalining sohil bo'yi mintaqasi

PASPORTI

1._____

_____

(suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalari, sohil bo'yi va sanitariya-himoya mintaqalari hududlarini tasdiqlagan organning nomi, hujjatning tartib raqami va sanasi hamda uning nomi)

ilova qilinayotgan grafik materiallarga muvofiq chegaralarda umumiy maydoni 13,80 ga, jumladan 10,32 ga sohil bo'yi mintaqasi bo'lgan suvni muhofaza qilish zonasi belgilangan.

2.Suvni muhofaza qilish zonasining hududi suv sathi chizig'idan 6.5 m, sohil bo'yi mintaqasi 6.5 metr masofada belgilandi.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi 981-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasida (sohil bo'yi va sanitariya-himoya mintaqalarida) quyidagilar taqiqlanadi:

Kanallarning suvni sohil bo'yi mintaqasida quyidagilar ta'qiqlanadi:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo'jaligi organlari, shuningdek, suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish (yosh daraxt qatorlari orasiga ekilgan vaqtinchalik ekinlar bundan mustasno);

organik va mineral o'g'itlarni saqlash va qo'llash;

chorva mollarini boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish;

har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona, o'tinxona, hojatxona va boshqalar qurish (suv xo'jaligi inshootlarini qurish bundan mustasno);

mineral o'g'itlardan bo'shagan idishlarni saqlash va yo'q qilish;

mineral o'g'itlarni transportda tashish va sepishda qo'llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish;

jun, kanop va teri yuvish.

Ushbu band qoidalari kanalizatsiya tizimiga yoki filtratsiyadan himoyalangan o'ralarga ulangan, avvaldan mavjud uy-joylar, ommaviy dam olish hududlari va turistik majmualar uchun tadbiq etilmaydi.

4.Suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi va sohil bo'yi (sanitariya-himoya) mintaqasida quyidagi birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallanadi:

o'rmon-meliorativ va agrotexnik chora-tadbirlar — suv obyektlari qirg'oqlarining mustahkamligini ta'minlash, ularni o'pirilishdan, botqoqqa aylanishdan saqlashga, shuningdek, suv ob'ektlari suv oqimining tabiiy rejimini barqarorlashtirish va yaxshilash;

irrigatsiya-melioratsiya chora-tadbirlar — suvdan foydalanishda qulay sharoitlar yaratishni ta'minlovchi suv xo'jaligi inshootlarini qurish, shuningdek, zarur hollarda daryo, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari o'zanlarini, hovuz, ko'llar va suv omborlarining tublarini zararli balchiq va cho'kindilardan tozalashni nazarda tutuvchi;

sanitariya-texnik chora-tadbirlar — suv ob'ektlariga tashlanadigan oqava suvlarni zararsizlantirish va xavfsizlantirishni ta'minlash, shuningdek, sanitariya-muhofaza zonasini va xo'jalik faoliyati yuritiladigan hududni tuzish;

tashkiliy chora-tadbirlar — suvning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar, binolar va inshootlarni suvni muhofaza qilish zonalaridan ko'chirish yoki yopish;

atrof-muhitga qulay ta'sir ko'rsatish uchun zararlantiruvchi vositalardan foydalanilmay ko'kalamzorlashtirish va daraxt ekish.

Nishon tumani Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i: B.Ziyodullayev

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
571-4-0-Q/23-son qaroriga
7-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK
OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI Q O'MITASI
QASHQADARYO VILOYAT
BOSHQARMASI
700017, Карши.ш Amir Temur ko'chas
74-uy. Telefon 225-06-08, Faks 225-07
23e-mail:

CENTRAL OFFICE OF THE
SANITARY AND EPIDEMIOLOGICAL
WELFARE AND PUBLIC HEALTH
SERVICE OF ADMINSTRATION OF
KASHKADARYA REGION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
74, Amir Temur str., Karshi,siti 700017
Phone 225-06-08, Fax 225-07-23

"1" noyabr 2023yil №20/1479 Qarshi.sh

"ÖZDAVYERLOYIHA" DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI "QASHVILYERLOYIHA" QASHQADARYO VILOYATI BÖLINMASI direktori N.Xolovga

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi. Sizning 2023 yil 20 oktyabrdagi **41-01/11-1184-sonli** xatingizga asosan quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli qarori va Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 6-martdagi 8-4-0-F-22-sonli farmoyishiga asosan Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi **Нишон tuman** Irrigatsiya bo'limiga qarashli kanallarining suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi hamda sohil bo'yi (sanitariya-ximoya) mintaqasini belgilash ishlari "O'zdavyerloyiha" instituti "Qashvilyerloyiha" bo'linmasi mutaxassislari tomonidan ishlar тайёрланган ва йўкламадан ўтказилган.

Ushbu суғориш каналлари suvidan ichimlik va davolash maqsadlarida foydalanilmasligini inobatga olib, sanitariya himoya zonalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish sanitariya muxofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risida"gi nizomning 6 bandida, soxil bo'yi mintaqasini esa shu nizomning 35-bandi bo'yicha belgilashni tavsiya etamiz.

Boshqarma boshliq o'rinbosari: **D.Toshniyozov**

Bajardi:I.Xudoyberdiyev
tel:+99890 442-94-96

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI
AMU – QASHQADARYO
IRRIGATSIYA TIZIMLARI
HAVZA BOSHQARMASI

MINISTRY OF WATER RESOURCES
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
AMU – KASHKADARYA
BASIN MANAGMENT OF
THE IRRIGATIONAL SYSTEMS

180104, Qarshi sh, I. Karimov ko‘chasi, 81a
Tel: (0375) 226-14-88, Faks: (0375) 226-17-97
E-mail: aq.havza@minwater.uz

180104, Karshi city, I. Karimov st, 81a
Phone: (0375) 226-23-48, Fax: (0375) 226-13-24
E-mail: aq.havza@minwater.uz

2023-yil “26” 10 № 02-08/1454

“O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy-loyihalash instituti “Qashvilyerloyiha” Qashqadaryo viloyati bo‘linmasi direktori N.Xolovga

Nusxasi: **Nishon tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig’i T.Soatovga**

XULOSA

“O‘zdaverloyiha” instituti “Qashvilerloyiha” bo‘linmasi tomonidan Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman irrigatsiya bo‘limiga qarashli kanallarning suvni muhovaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi (sohil bo‘yi, sanitariya-himoya mintaqasi)ni belgilash ishlari tayyorlanganligi ma’lum qilindi.

Ishni bajarish jarayonida Nishon tuman irrigatsiya bo‘limi hisobidagi Nishon tumani hududlaridan o‘tgan “R-4”, “R-4-1”, “R-9” va “R-10” kanallari joylashgan yer maydonlarini yo‘qlamadan o‘tkazilgan.

Yo‘qlama jarayonida yuqorida ko‘rsatilgan kanallarning egallab turgan yer maydonlari Nishon tumani yerlarida joylashgan bo‘lib sohil bo‘yi mintaqasi jami 45,45 gektar qilib belgilandi, jumladan “R-4”-14,04 gektar, “R-4-1”-13,72 gektar, “R-9”-10,32 gektar va “R-10”-7,37 gektarni tashkil etadi va sohil bo‘yi mintaqa zonasi 1-9 metrgacha belgilanganligi ma’lum qilindi.

Mazkur Nishon tuman irrigatsiya bo‘limiga qarashli kanallarining o‘rnatilgan sohil bo‘yi mintaqasiga belgilangan tartibda rioya qilib noqonuniy qurilish inshoatlarini qurmaslik hamda sanitariya va epidemiologiya qonun qoidalariga rioya qilish qatiy talab etiladi.

Boshqarma boshlig‘i **T.Egamnazarov**

Bajardi: Q.Murodov
75-226-12-72

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYAT QISHLOQ XO‘JALIGI BOSHQARMASI

1180104, sh, Qarshi I.Karimov k,81A:x/r -23402000300100001010.
sh/r-40102186010401704296008 2001, MFO 00014 ,INN 200667644
Tel: (75)221-06-61e-xat: qashqadaryo_qsxb@exat.uz E-mail: qashqadaryo@agro.uz

2023-yil “24” 10 № 04-023/1750 Qarshi sh.

Qashqadaryo viloyat hokimligiga

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob’yektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to’g’risidagi 981-sonli hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2022 yil 6-martdagi 8-4-0-F-22-sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo'limiga qarashli kanallarining suvni muhofaza qilish (sanitariya-muhofaza) zonasi hamda sohil bo'yi (sanitariya-ximoya) mintaqasini belgilash ishlari “O'zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo'linmasi tomonidan tayyorlangan hujjatlarni ko’rib chiqish to'g'risida

T A Q D I M N O M A

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob’yektlarining muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to’g’risidagi 981-sonli hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2022 yil 6-martdagi 8-4-0-F-22 sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo'limining Nishon tumani hududidan o'tgan “R-4”, “R-4-1”, “R-9” va “R-10” kanallari joylashgan yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish ishlari “O‘zdavyerloyiha” instituti “Qashvilyerloyiha” bo’linmasi tomonidan bajarilgan.

Ishlarni bajarish jarayonida Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Nishon tuman Irrigatsiya bo'limining Nishon tumani yerlarida joylashgan bo’lib sohil bo’yi mintaqasi, jumladan “R-4” 14,04 gektar, “R-4-1” 13,72 gektar, “R-9” 10,32 gektar va “R-10” 7,37 gektar yer maydonlari jami 45,45 gektar, yuqorida ko’rsatilgan kanallarning sohil bo’yi mintaqa zonasi 1-9 metrgacha etib belgilangan.

Yuqoridagilarga ko’ra, ko’rsatilgan sohil bo’yi mintaqalarida Sanitariya-epidemiologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi qoidalariga rioya qilinishi, shuningdek sohil bo’yi mintaqalariga hujjatsiz qurilish inshootlarini barpo etishni oldini olish yuzasidan nazorat o’rnatilishi hamda qonunda belgilangan tartibda foydalanishni tavsiya etadi

Boshqarma boshlig’i **O.Boymirov**

Bajardi: Sh.Sherqulov
Tel: +998906388343